

## BAKALAVRIATDA HUJJATLI KINO REJISSURASINI O‘QITISH (FAKT, VOQELIK VA ETIKA TAMOYILLARI)



**Hojimatov Doston Hamidulla o‘g‘li**  
O‘zDSMI, “Kino, televideniye va rejissyorligi”  
kafedrası mudiri v.b., katta o‘qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381599>

**Annotatsiya.** Maqola bakalavriatda hujjatli kino rejissurasini o‘qitishning metodologik va epistemologik jihatlarini tahlil qiladi. Hujjatli kino voqelikni tizimli kuzatish, fakt va hodisalarni ilmiy-hissiy yondashuv bilan aks ettirish, vizual etika va haqiqat talqini tamoyillarini qo‘llash orqali shakllanadi. Talabalarga Nicholsning poetik, expository, observational, participatory, reflexive va performative modlari orqali epistemik tafakkur, tarixiy kontekstni tushunish va hissiy idrokni rivojlantirish imkoniyati beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Hujjatli kino, rejissura, voqelik, faktlar, kuzatish, estetika, etika, epistemologiya, modlar, pedagogika.

**Аннотация.** Статья анализирует методологические и эпистемологические аспекты преподавания режиссуры документального кино на бакалавриате. Документальное кино формируется через систематическое наблюдение за реальностью, отображение фактов и событий с научно-эстетическим подходом, применение принципов визуальной этики и интерпретации истины. Студенты получают возможность развивать эпистемическое мышление, понимание исторического контекста и эмоциональное восприятие через моды Николса: поэтический, экспозитивный, наблюдательный, партиципаторный, рефлексивный и перформативный.

**Ключевые слова:** документальное кино, режиссура, реальность, факты, наблюдение, эстетика, этика, эпистемология, моды, педагогика.

**Abstract.** The article analyzes the methodological and epistemological aspects of teaching documentary film directing at the undergraduate level. Documentary cinema is formed through systematic observation of reality, the representation of facts and events with a scientific-aesthetic approach, and the application of principles of visual ethics and truth interpretation. Students are provided with the opportunity to develop epistemic thinking, understand historical context, and enhance emotional perception through Nichols’ modes: poetic, expository, observational, participatory, reflexive, and performative.

**Keywords:** documentary film, directing, reality, facts, observation, aesthetics, ethics, epistemology, modes, pedagogy.

### Kirish

Zamonaviy hujjatli kino rejissurasi kinematografiya tizimida alohida epistemologik va metodologik maqomga ega bo‘lib, real voqelikni vizualrepresentativ tizimda tahlil qilishning o‘ziga xos shaklini yaratadi. Hujjatli kino “haqiqat rejimlari” asosida faoliyat yuritadi va u, fikr, fakt va vizual dalil o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aniqlashga qaratilgan epistemik amaliyot

sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda voqelikni dramatik modellashtirishdan voz kechib, tizimli kuzatuv, empirik faktlarni yig‘ish, verite yondashuvlari, intervyu va arxiv materiallari orqali dalilga asoslangan fikr shakllantirish ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan hujjatli kino badiiy-hissiy hodisa, ijtimoiy bilim ishlab chiqarishning vizual metodologiyasi, ya‘ni “ko‘rinarli epistemologiya” sifatida ham talqin etiladi. Mazkur yondashuv hujjatli kino rejissyoridan voqelikni qayta konstruksiya qilish emas, uni axloqiy mas‘uliyat, dalil izchillik va vizual etika tamoyillariga tayanib sharhlanishni talab etadi. Shu tariqa, hujjatli kino rejissurasi bugungi kunda jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va antropologik muammolarni o‘rganish, talqin qilish va jamoatchilik ongida “*haqiqat talqini*”ni shakllantirishning muhim ilmiy-estetik vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston kontekstida hujjatli kino nazariyasi va amaliyotini o‘rgatishda talabalarga birinchi navbatda mahalliy voqeliklarni metodologik va hissiy jihatdan tahlil qilish imkoniyatini yaratish muhimdir. Talabalar jamiyat, siyosat, madaniyat va tarixiy hodisalarni hujjatli kino vositasida aks ettirishni o‘rganishlari lozim, shu jumladan Nichols tomonidan aniqlangan “poetik, expository, observational, participatory, reflexive va performative mode’lar” orqali voqealarning epistemik va hissiy jihatlarini baholashlari kerak.

Mahalliy kontekstga moslashtirilgan expository mode orqali tarixiy voqealarni tushuntirish, participatory mode orqali subyektlar bilan intervyu olib real tajribani aks ettirish, performative mode orqali esa shaxsiy va jamiyat subyektiv tajribalarini vizual tarzda ifodalash talabalarga amaliy ko‘nikmalar beradi. Shu bilan birga, hujjatli kino tahlilida tarixiy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish, vizual etika va real faktlarga hurmatni saqlash, shaxsiy sir va obro‘ni himoya qilish zarurati alohida ta‘kidlanadi. Amaliy mashg‘ulotlar orqali talabalar mahalliy mavzularni filmga olish, tahrirlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, Nicholsning hujjatli kino mode‘larini amalda qo‘llash, shuningdek, har bir filmning o‘ziga xos epistemik va estetik ovozi shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

### **Nazariy asoslar**

Hujjatli kino ta‘limi bakalavriat darajasida talabalarga voqelikni vizual va metodologik jihatdan tahlil qilish imkonini beruvchi muhim akademik yo‘nalishdir. Michael Renov hujjatli kino nazariyasida asosiy to‘rtta konsepsiyani ajratib ko‘rsatadi: “hujjatli kino voqelikni qayd qilish va taqdim etish san‘ati, ilmiy va epistemik vosita, ijtimoiy va madaniy tadqiqot vositasi, shuningdek axloqiy va etik qarorlarni talab qiluvchi kino shakli”. Renovning fikricha, hujjatli kino voqealarni qayd etadi, talqin qilish orqali tomoshabinga bilim va estetik tajriba beradi. Bill Nichols “hujjatli filmlarning har birining o‘z epistemik va estetik ovozi borligini, poetik, expository, observational, participatory, reflexive va performative modlarning har biri o‘z metodologik asosiga ega” ekanini ta‘kidlaydi. Bu bakalavriatda talabalarga hujjatli kinoni turli metod va didaktik yondashuvlar orqali o‘rganish imkonini beradi.

Brain Winston “hujjatli filmdagi faktlarni tizimli ravishda qayd etish va ilmiy asosda talqin qilish imkoniyatini ko‘rsatadi”. Bu yondashuv talabalarga kino orqali tarixiy va ijtimoiy tadqiqot o‘tkazishni o‘rgatadi. Trinh T. Va Minh-ha performativ va subyektiv modellarni tahlil qilgan. U “hujjatli filmning subyektiv tajribalarni aks ettirish orqali tomoshabinning hissiy va ijtimoiy idrokini shakllantirishini ko‘rsatadi. Bu esa talabalarga kino va voqelik o‘rtasidagi murakkab epistemik aloqani tushuntiradi. P.Rosen “hujjatli filmning tarixiy va ijtimoiy kontentni saqlab qolishdagi rolini va film vositasida “haqiqat talqini”ni qanday shakllantirish mumkin”ligini tushuntiradi. Bu talabalarga hujjatli kino metodologiyasida tarixiy kontekstni hisobga olishni o‘rgatadi.

### **Metodologiya**

Bakalavriat darajasida hujjatli kino rejissura ta'limini tadqiq qilishda tadqiqot obyekti sifatida ta'lim jarayoni, subyekti sifatida esa talabalar va o'qituvchilarning kompetensiyalari tanlanadi. Tadqiqot, epistemologik yondashuv va ilmiy-metodik prinsiplar asosida, talabalar real voqelikni tadqiq qilish, faktlarni talqin qilish va etika tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuv modelni nafaqat nazariy, balki amaliy asosga ega qilish imkonini beradi, shuningdek, pedagogik jarayonda fakt–g'oya muvozanati va "haqiqat interpretatsiyasi"ni yaratishning ilmiy metodikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Kompetensiya modelini yaratish jarayoni kategoriya va bloklar bo'yicha strukturalashgan tarzda amalga oshiriladi. Nazariy, amaliy, ijodiy va etika kompetensiyalari indikatorlari aniq belgilab chiqiladi va ularni baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, model bakalavriat ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar, master-klasslar, amaliy loyihalar va simulatsion mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi, bu esa hujjatli kino rejissyorini tayyorlash jarayonini tizimli, nazariy, amaliy va etika jihatdan standartlashtirish imkonini yaratadi.

### **Hujjatli kino rejissura kompetensiya modeli**

Hujjatli kino rejissura kompetensiya modeli bakalavriat darajasidagi ta'lim jarayonida talabalarni real voqelikni tadqiq qilish, faktlarni talqin etish va etika tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishga tayyorlashni maqsad qilgan. Model to'rtta asosiy blokdan iborat:

- nazariy kompetensiyalar,
- amaliy/texnik kompetensiyalar,
- ijodiy kompetensiyalar
- tashkiliy/kommunikativ kompetensiyalar.

*Nazariy blok* kino tarixi, metodologiya, faktlar tahlili va etika bo'yicha bilimlarni qamrab oladi, bu esa talabalarga voqelikni epistemik va estetik jihatdan tushunish imkonini beradi, shuningdek, "haqiqat talqini"ni yaratishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

*Amaliy va texnik kompetensiyalar* bloki talabalarni real kino ishlab chiqarish jarayonida ishlashga tayyorlaydi. Bu blok doirasida talabalar kuzatuv, intervyu, verité va esselistik yondashuvlarni amaliy qo'llash, voqelikni syujet va dramaturgiya bilan uyg'unlashtirish hamda fakt–g'oya muvozanatini vizual ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu tarzda, talabalarning amaliy kompetensiyalari nafaqat texnik mahorat, balki voqelikni tizimli tahlil qilish va estetik qaror qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

*Ijodiy kompetensiyalar* talabaning voqelikni badiiy talqin qilish qobiliyatini shakllantiruvchi markaziy komponent sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kompetensiyalar, birinchi navbatda, kuzatuvchanlik, vizual idrok, fakt va hodisani konseptual umumlashtirish, estetik tanlovlar qilish, hamda hujjatli obrazning ma'no qatlamini yaratish kabi ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Hujjatli kino o'z tabiatiga ko'ra real voqelik bilan ishlaganligi bois, talabaning ijodiy qarori faktlarga nisbatan halollik, etik mas'uliyat va badiiy yondashuvning uyg'unligiga asoslanishi lozim. Ijodiy kompetensiyalar, shuningdek, talabaning real voqelikdan dramatik struktura yaratish, qahramon xarakterini ochish, vizual metafora va obrazli yechimlarni ishlab chiqish, kamera orqali kuzatuvning uslubiy o'lchovini belgilash kabi muhim bosqichlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayonda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun talabaga konsepsiya ishlab chiqish, vizual eskizlar tayyorlash, haqiqiy ijtimoiy voqeani badiiy tahlil qilish va estetik qarorlarni asoslash kabi topshiriqlar beriladi. Natijada talaba hujjatli kino muallifi sifatida o'z estetik pozitsiyasiga ega bo'ladi va voqelikni badiiy-falsafiy nuqtai nazardan ifodalashga qodir bo'lgan professional ko'nikmalarni egallaydi.

*Tashkiliy va kommunikativ kompetensiyalar* bloki talabaning jamoa bilan ishlash, loyiha boshqaruvi, real voqelik bilan ishlash muhitini tashkil etish va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bu blokning indikatorlari orqali pedagoglar talabalarni professional muhitda o'z malakasini mustahkamlash, muloqot va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tarzda, hujjatli kino rejissura kompetensiya modeli nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar va etika tamoyillari bilan integratsiyalash orqali talabalarni professional va ijodiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi.

### **Modelning amaliy tatbiqi**

Hujjatli kino rejissura kompetensiya modeli bakalavriat ta'limida modul va blok asosida tatbiq qilinadi. Talabalar amaliy mashg'ulotlarda qisqa metrajli hujjatli film loyihalarini ishlab chiqarish orqali nazariy bilimlarini real kino ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu jarayon talabalarga faktlarni tizimli tadqiq qilish, voqelikni kuzatish va intervyu olish, shuningdek verité va esselistik yondashuvlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ular fakt–g'oya muvozanatini yaratish va voqelikni vizual tilda konseptual tarzda ifodalash qobiliyatini o'zlashtiradilar, bu esa kompetensiya modelining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtiradi.

Kompetensiyalarni baholash tizimi indikatorlarga asoslangan va talabaning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda etika tamoyillariga rioya qilishini o'z ichiga oladi. Talabalar loyiha ishlari, simulyatsion mashg'ulotlar va professional feedback orqali baholanadi, bu esa ularning real kino ishlab chiqarish jarayonidagi qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagoglar kompetensiya bloklari bo'yicha talabalarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ta'lim jarayonini optimallashtirish va standartlashtirishga xizmat qiladi.

Modelning amaliy tatbiqi shuningdek pedagogik tavsiyalar va ijodiy simulyatsion mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Bu talabalarga jamoaviy ishlash, loyiha boshqaruvi, ijodiy muammolarni hal qilish va real voqelik bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Natijada, kompetensiya modeli bakalavriat bosqichida hujjatli kino rejissyorlarini nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, ijodiy va etika kompetensiyalari bilan birgalikda tayyorlashga xizmat qiladi, bu esa ularning professional va ijodiy malakasini mustahkamlaydi.

### **Xulosa**

Bakalavriat ta'limida hujjatli kino rejissurasining kompetensiya modeli talabalarni professional, estetik va etik jihatdan tayyorlashning tizimli vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Model nazariy, amaliy, ijodiy va tashkiliy kompetensiyalarni integratsiyalash orqali talabalarga real voqelikni tahlil qilish, faktlarni interpretatsiya qilish va voqelik–g'oya muvozanatini vizual tarzda yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, kompetensiya modeli talabalarga "haqiqat interpretatsiyasi"ni ishlab chiqish, real tasviriy muhit bilan ishlash va voqelikni epistemik nuqtayi nazardan ifodalash qobiliyatini shakllantiradi.

Modelning amaliy tatbiqi indikatorlarga asoslangan baholash tizimi orqali amalga oshiriladi, bu esa pedagoglarga talabalarni individual rivojlanish rejalariga muvofiq qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Talabalar master-klasslar, amaliy loyihalar va simulyatsion mashg'ulotlar orqali real kino ishlab chiqarish jarayonida o'z kompetensiyalarini mustahkamlashadi. Shu tarzda, pedagogik jarayon etika tamoyillari, fakt–g'oya muvozanati va estetik qarorlar asosida talabalarining malakasini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu kompetensiya modeli hujjatli kino boshqa yo'nalishlariga, xususan to'liq metrajli va eksperimental hujjatli filmlarga moslashtirilishi mumkin. Bu esa bakalavriyat ta'limini

transdisipliner va zamonaviy kino ta'limi standartlariga moslashtirish, talabalarning professional, ijodiy va etik tayyorgarligini oshirishga imkon yaratadi. Shu tarzda, hujjatli kino rejissura kompetensiya modeli ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan samarali va pedagogik jihatdan integratsiyalashgan vosita sifatida ta'lim jarayonini boyitadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. B.Nichols. Introduction to Documentary. – USA.: Indiana university press. 2001, p.223.
2. M.Renov. Theorizing documentary. – Los Angeles.: The American film institute. 2021, p. 27.
3. B.Nichols. Representing Reality:Issues and Concepts in Documentary. – USA.: Indiana university press. 1991, p. 75.
4. Winston B. The documentary film as scientific inscription. – London.: Routledge. 1993, p. 57.
5. Trinh T. Minh-ha. The Totalizing Quest of Meaning. – Nyu-York.: 1993, p. 107.
6. P.Rosen. Change Mummified: Cinema, historicity, theory. - Minneapolis.: University of Minnesota press, 2001, p. 472.